

Yangi virus xavfi

Ha, har kimning o'z "hobbisi", o'z odati bo'ladi. Kimdir tanga yig'adi, kimdir esa marka. Ba'zilar ko'zi olayguncha ichishga shaydo, allakimlardir komputerini ustaga olib kelishga ...

Ana shunday talabalardan biri bu-Sochlari kaktusni eslatadigan bir do'stimiz bor. Biz uni erkalab virus deb chaqiramiz. Nimaga virus deysizmi?- buning sababi juda oddiy! Haftada yetti kun bo'lsa, uning komputeriga sakkiz kun virus tushar edi va komputerini o'qishimizni oldiddagi ustaxonaga olib kelar va darslarga qatnashishga vahti ham bo'lmas edi. Shundan keyin u do'stimiz bizning tassavurimizda virus degan ulug' nomga sazavor bo'lgandek edi. Bizning guruhimizda ham barchada komputeri bor va bu komputerlarga deyarli har kuni virus mehmon bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz ... chunki, bu viruslardan qutilish juda qiyin ekan, har kuni yangi virus yana nimadir pragrammaga yoki dokumentga xavf solayotganiga guvoh bo'lamiz. Bu muammoning yechimi topishga barchamiz kirishdik va ustaxonaga tashrif buyurishga ahd qildik! Guruhimiz bilan ustaga muammo nimada ekanini va virus qanday qilib bizga har kuni, har soatda va har yerda tahdid qilishini tushuntirdik. Shunda usta bizga shunday maslahatlar berdi: Har qanday komputerlarga ham virus tahdid soladi va bu virus tushishidan oldin komputerlarga turli xil antivirus moslamalarini qo'yishni va virus tushishini oldini olish kerakligini uqtirdi. Yaqinda bizgacha yetib kelayotgan yangi virus xavfi borligini ham aytib o'tdi. Aytishlaricha, yangi virus barcha komputerlarga kirishga va barcha hujjatlarni yo'q qilishga qodir emish. Bunday yangi kashfiyot qandaydir shaxs tomonidan tarqatilar ekan va u

shaxslar virus tarqatish bilan birgalikda enternetdan foydalanuvchilarning hisobidagi pullarni ham yechib olishga qodir ekan! Biz hayron qolgancha ustaxonadan chiqib kettik va hammamiz uy-uyimizga tarqab komputerlarimizni virusdan himoya qilishga kirishdik!

Ertasi kuni guruhga talabalar yig'ildik va virus do'stimizni yangi virus xavfi borligiga ogohlantirdik va bunday viusarlardan vahtida komputerini himoya qilishini maslahat berdik va bu ishda yordamimizni ayamasligimizni ham aytdik!

Dilnoza Muhammadova O'zDJTU

Xalqaro jurnalistika fakuleti talabasi.